

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL TAYANCH KOMPETENSIYALARNI DASTURIY TA‘MINOT YARATISH ORQALI RIVOJLANTIRISH

Xakkulov Yunusjon Abduraufovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o’qituvchisi

Annotasiya. Tayanch kompetensiyalar - inson uchun kim va qanday kasb egasi bo‘lishidan qat’iy nazar, shaxsiy hayotida, kasbiy faoliyatida, ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun egallashi lozim bo‘lgan layoqatlar, qobiliyatlar va hayotiy malaka va ko‘nikmalar majmuidan iboratdir. Bunda har bir shaxs kommunikativ bo‘lishi, axborot bilan ishlay olishi, shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirishi, ijtimoiy faol fuqaro bo‘lishi, umummadaniy xislatlarga ega va fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lishi nazarda tutiladi.

Kalit so‘zlar: tayanch kompetensiyalar, dasturiy ta‘minot, o‘quvchi, axborot, malaka, ko‘nikma, ta’lim.

Аннотация. Базовые компетенции – это совокупность способностей, навыков и жизненной квалификации, которые человек должен обладать, чтобы быть успешным в личной жизни, профессиональной деятельности и социальных отношениях, независимо от того, кем и каким образом он является. При этом предполагается, что каждый человек будет коммуникативным, сможет работать с информацией, развиваться как личность, быть социально активным гражданином, обладать общечеловеческими качествами и быть осведомленным о научно-технических новинках.

Ключевые слова: базовые компетенции, программное обеспечение, ученик, информация, квалификация, навык, образование.

Abstract. Basic competencies are a set of abilities, skills, and life qualifications that a person must possess in order to be successful in their personal life, professional activities, and social relationships, regardless of who they are or how they are. This assumes that everyone is communicative, able to work with information, develop as an individual, be a socially active citizen, possess universal human qualities, and be aware of scientific and technological innovations.

Keywords: basic competencies, software, student, information, qualification, skill, education.

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

Tayanch kompetensiyalarni dasturiy ta’minot yaratish orqali rivojlantirish o‘quvchilarning muvaffaqiyatli ta’lim olishlari va jamiyatda faol ishtirok etishlari uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z ichiga oladi va quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyati: Tanqidiy fikrlash o‘quvchilarning axborotni tahlil qilish, muammolarni aniqlash va samarali hal qilish qobiliyatini oshiradi. Bu qobiliyat o‘quvchilarga murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga yordam beradi. Muammolarni hal qilish esa, mavjud muammolarni tahlil qilish va ular uchun samarali yechimlarni topishni o‘z ichiga oladi. Ushbu qobiliyatlar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash va analitik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [1].

2. Axborotni izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari: Axborotni izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari o‘quvchilarning turli manbalardan kerakli ma’lumotlarni izlash, ularni to‘g‘ri tahlil qilish va talqin qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu ko‘nikmalar, ayniqsa, ilmiy-tadqiqot va akademik ishlar uchun muhimdir, chunki ular o‘quvchilarga mustaqil ravishda bilimlarni izlash va ularni tushunish imkonini beradi.

3. Kompyuter savodxonligi va raqamli texnologiyalardan foydalana olish: Kompyuter savodxonligi va raqamli texnologiyalardan foydalana olish zamonaviy ta’lim jarayonida katta ahamiyatga ega. Bu ko‘nikmalar o‘quvchilarga turli raqamli vositalar va platformalardan samarali foydalanishni o‘rgatadi. Raqamli savodxonlik o‘quvchilarga axborotni izlash, yaratish, baham ko‘rish va himoya qilish qobiliyatlarini beradi [2].

4. Jamoada ishlash va kommunikativ ko‘nikmalar: Jamoada ishlash va kommunikativ ko‘nikmalar o‘quvchilarga guruhda samarali ishlash, boshqalar bilan fikr almashish va birgalikda qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu ko‘nikmalar jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun muhimdir. Kommunikativ ko‘nikmalar o‘quvchilarning og‘zaki va yozma aloqa qilish, o‘z fikrlarini aniq va tushunarli ifoda etish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi [3].

O‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning ahamiyati muhim bo‘lib, bunda o‘quvchiga buyuk shaxsdek qarash, uni hurmat qilish, uni tushunish, qabul qilish, unga ishonish, dars jarayonida shunday muhitini yaratish

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

kerakki, unda o‘quvchi o‘zini shaxs deb sezsin, o‘ziga bo‘lgan e‘tiborni ko‘rsin, o‘z mehnatidan faxrlansin, o‘qishda muvaffaqiyat qozonishiga va iqtidoriga ishonchi ortsin. Bunda individual yondashuv metodlardan foydalanish - o‘qitish samaradorligini oshiradi. Guruhlarda ishlashni quyidagi qismlarga bo‘lish mumkin: Juftliklarda ishlashda o‘zlashtirishi bir xil yoki turlicha bo‘lgan ikki o‘quvchidan juftlik hosil qilish mumkin. Bunda yuzaga keladigan do‘stlikdan ajablanmaslik kerak, balki, guruhda turli qobiliyatli bolalar orasidagi munosabatlarga ahamiyat qaratish lozimdir. Kichik guruhlarda bir xil yoki turli darajadagi o‘quvchilar tanlanib, har bir guruhga topshiriqning turli bo‘lagini berib, birga ishlashga yunaltiriladi. Vazifalarni farqlash metodining mohiyati soddadan murakkablikka asoslangan bo‘lib, o‘zlashtirishi turlicha bo‘lgan o‘quvchilar uchun har xil vazifalar ishlab chiqishdan iborat. Masalan, bir mavzu yuzasidan ikki turdagi savollar tuzish mumkin. Hamma o‘quvchilar birinchi turdagi savollar ustida ishlashi bilan birgalikda, qobiliyatli o‘quvchilar ikkinchi tur savollari ustida ham izlanishlariga to‘g‘ri keladi. Bunda o‘quvchilarning ismlarini aytib savol berish ham samarali usul bo‘lib ishtirokchilarning diqqat-e‘tiborini darsga jalb qilish va kuchli o‘quvchilardan qiyinroq savol va boshqalardan osonroq savollarning javobini so‘ragan ma’qul.

Qo‘shimcha ish yoki vazifa usulida o‘quvchilarga turli darajadagi uy vazifasi berilib, sust o‘zlashtiradigan o‘quvchilarga mavzuni mustahkamlash maqsadida qo‘shimcha vazifa berish, kuchli o‘quvchilarga esa bilimlarini kengaytiradigan, ijodiy yondashuv talab qilinadigan qo‘shimcha vazifalar beriladi.

Kompetensiyalardan ta’lim kompetensiyalarini farqlash lozim. Ta’lim kompetensiyasi o‘quvchini kelajakdagi to‘laqonli hayotidagi faoliyatini modellashtiradi. Masalan, fuqaro ma’lum bir yoshga yetgunga qadar ba’zi bir kompetensiyalarni tatbiq eta olmaydi. Lekin bu-ularni o‘quvchida shakllantirilmaydi, degani emas. Bu holatda biz ta’lim kompetensiyasi haqida gapiramiz. Masalan, o‘quvchi fuqarolik kompetensiyasini o‘zlashtirsada, uni maktab yoki kollejni tugatganidan so‘ng ishlatadi. Shunga ko‘ra, bunday kompetensiyalar o‘qish davrida ta’lim kompetensiyasi sifatida namoyon bo‘ladi [4].

Dunyoning ba’zi mamlakatlaridagi ta’lim muassasalarida darsdan keyin o‘zlashtirishi past o‘quvchilar uchun qo‘shimcha ta’lim guruhleri tashkil etilgan. Bu guruhlarda o‘qituvchilar yoki yuqori

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

sinf o‘quvchilari tomonidan ish olib boriladi. Ba’zi mamlakatlarda qiyinchilikka duch kelayotgan o‘quvchilarga yordam berish uchun mentoring dasturlari mavjud. Matematikadan o‘quvchilarda ta’lim kompetensiyalarini shakllantirishni turli intraktiv yo‘llar orqali amalga oshirish mumkin. Matematika ko‘proq hisob kitoblar, mantiqiy fikrlashni talab qilganligidan kommunikativ kompetensiyaning yozma nutqni rivojlantirish qismiga ko‘proq e’tibor berilgan. Hozirgi yoshlardagi egoizm, bir-birini tushunmaslik, tanqidga chidamaslik kabi xislatlari kattalar orasida o‘zaro munosabatlarda salbiy rol o‘ynaydi. Shunga ko‘ra, juftlikda va guruhlarda ishlash, bahs-munozara o‘tkazish, didaktik o‘yinlar o‘tkazish kabi usullardan foydalanib mashg‘ulotlar tashkil etilgan. Ularda matematik atamalar konkursi, savol-javoblar, aqliy hujum kabi metodlar qo‘llanilib, kommunikativ kompetensiyalar shakllantirilgan.

Axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish uchun quyidagi usullar qo‘llanilgan:

- yangi atamalarni o‘rganishda dastlab darslik, izohli lug‘atdan foydalanib, so‘ngra o‘zlari uni batafsil ta’riflashga uringanlar;
- mavzular bo‘yicha taqdimotlarni tayyorlashda turli manbalardan ma’lumotlar topilgan;
- maktab darsliklarida masala yechish uchun asosan matn ko‘rinishida beriladi. O‘quvchilarga masalalar jadval, grafik, diagrammalar ko‘rinishida berilgan.

Shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish uchun topshiriqlarning yechimini tekshirish. Bunda diqqatni jamlash, mas’uliyat, mustaqil ishlash, ma’lum darajada irodani boshqarish, qarorlar qabul qilish kabi xislatlar shakllantirilgan. Qo‘shimcha ravishda mustaqil masala, test, boshqotirma va boshqa didaktik materiallar tayyorlash.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarni shakllantirish uchun oilaviy va sinfda tashkil etiladigan tadbirlarni o‘tkazish uchun rejalar tuzish, hisoblarini bajarish. Bunda narsani qayerdan sotib olish, sotuvchilar bilan qanday munosabatda bo‘lish kabi rollarni bajarish bo‘yicha didaktik o‘yinlar o‘tkazilgan.

Umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirish uchun o‘quvchilarga tarixiy masalalarni yechishni hamda buyuk qomusiy allomalarning hayoti va kashfiyotlarini o‘rganish, matematik atamalar va belgilarning kelib chiqish tarixini o‘rganish orqali rivojlantirganlar. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda tavsiyalar belgilandi: fizika va matematikadan har bir mavzu oxirida amaliy xarakterdagi

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

masalalarni darslik yoki qo‘llanmada berish; o‘quvchilarni notanish vaziyatlarda duch keladigan masalalarni yechishga o‘rgatish; quyi sinflarda tarixiy mazmundagi masalalardan foydalanish; dars jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash [5,6].

Xulosa. Demak, o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarini shakllantirish ta’limning, inson kamoloti rivojining muhim jihatlaridan biridir. Hozirgi axborot olamida o‘qishda, kundalik faoliyatda muvaffaqiyatlarga erishish uchun zaruriy ma’lumotga ega bo‘lish, ularni izlab topish, undan keraklisini ajratib olish va foydalanishni o‘rganish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. "Integrating 21st century skills into education systems: From rhetoric to reality." *Brookings* (2023).
2. "Teaching the 21st Century Learning Skills with the Critical Thinking." *ERIC* (2023).
3. Learning with the interactive whiteboard in the classroom: Its impact on vocabulary acquisition, motivation and the role of foreign language anxiety." *Education and Information Technologies*.
4. Vaxobov M.M. Tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalarning mazmun mohiyati va ularning tanlanishi // Kuch-bilim va tafakkurda. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi «Ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonini rivojlantirish» Bosh boshqarmasi Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlarini joriy etish – Zamonaviy ta’lim paradigmasi sifatida. – Toshkent, 2016. – B. 4-10.
5. Tajibayeva X.X., Talipova M. Fizika darslarida o‘quvchilarda tadqiqotchilik va XXI asr kompetensiyalarini rivojlantirish. (Electron resurs) 2020. <https://kompy.info/kompetensiyalarini-rivojlantirish.html>
6. Ермакова О.Б., Вербицкий А.А. Школа контекстного обучения как модель реализации компетентностного подхода в общем образовании // Педагогика. - 2009. - №2. -С. 12-18.